# XALQ DEPUTATLARI YASHNOBOD TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2023 - yil 27 - mart II-78-38-14-203-K/23 Yashnobod tuman hokimligi

## “Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining 2023 yil 4-yanvardagi 2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-73-1-14-203-K/23-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonuniga muvofiq Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining 2023-yil 4-yanvardagi “2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-73-1-14-203-K/23-son qaroriga o‘zgartirish kiritish maqsadida xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Yashnobod tumani moliya bo‘limining “Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining 2023-yil 4-yanvardagi 2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-73-1-14-203-K/23-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi kiritgan taklifi ma’qullansin.

2. Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining 2023-yil 4-yanvardagi 2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-73-1-14-203-K/23-son qarorining 1-ilovasi (2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi)da:

-3-bandida nazarda tutilgan “Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq”da 3-ustun (Mablag‘ miqdori)dagi 27 588 000,0 raqamlari - 17 398 000,0

raqamiga;

-5-bandida nazarda tutilgan “Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i” da 3-ustun (Mablag‘ miqdori)dagi “17 398 000,0” raqamlari - 27 588 000,0 raqamiga o‘zgartirilsin.

3. Qarorning qolgan qismlari o‘zgarishsiz qoldirilsin.

**Kengash raisi** **B.Raxmankulov**